



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi

**NAVOIY VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**



***Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar***






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **6 304** tani tashkil etdi. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **7** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **6 297** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar oyida navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi **518,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **86,4 %** ga yetdi.

Shujumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **54,4** mlrd. so'mni o'sish sur'ati **134,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **464,0** mlrd. so'mni (**82,9 %** ni tashkil etdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **32,3** mlrd. so'mni (**87,7 %** ni tashkil qildi) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	518,4	86,4	54,4	134,7	464,0	82,9
Navoiy sh.	100,0	91,7	32,8	153,8	67,2	76,6
Zarafshon sh.	64,0	91,6	7,4	3,1 m.	56,6	83,9
G'ozg'on sh.	6,8	87,8	0,0	-	6,8	87,3
<i>tumanlar.</i>						
Konimex t.	16,7	89,2	0,4	74,5	16,3	89,6
Qiziltepa t.	68,7	84,4	1,0	73,6	67,7	84,6
Navbahor t.	34,9	87,2	4,8	114,4	30,1	84,1
Karmana t.	100,8	79,4	5,2	65,2	95,6	80,3
Nurota t.	23,0	87,3	0,6	45,7	22,4	89,5
Tomdi t.	4,3	86,4	0,1	2,5 m.	4,2	85,2
Uchquduq t.	29,0	86,0	0,3	80,9	28,7	86,1
Xatirchi t.	70,2	86,5	1,8	189,5	68,4	85,3

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Navoiy shahri (**91,7 %**), Zarafshon shahri (**91,6 %**), Konimex tumani (**89,2 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI




Chakan savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **122,8 %** ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati

oylar kesimida (foizda)

(2022- yil, 2023- yil yanvar oyi)




2023- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 86,4 % ni tashkil qildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **464,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar oyiga nisbatan **17,1** % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **89,5** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi **54,4** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **10,5** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha G'ozg'on shahri (99,4 %), Uchquduq (98,9 %) va Qiziltepa (98,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (32,8 %), Navbahor tumani (13,7 %), Zarafshon shahri (11,6 %), Karmana tumanida (5,1 %) kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, Foizda
Navoiy viloyati	496,2	84,7
Navoiy sh.	652,1	88,9
Zarafshon sh.	742,5	90,9
G'ozg'on sh. <i>tumanlar.</i>	756,8	86,9
Konimex t.	449,8	87,7
Qiziltepa t.	435,4	83,0
Navbahor t.	296,3	85,7
Karmana t.	752,7	77,2
Nurota t.	263,3	85,9
Tomdi t.	274,6	84,8
Uchquduq t.	747,2	84,3
Xatirchi t.	338,0	84,9

2023- yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **496,2** ming. so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **84,7** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm G'ozg'on shahri (**756,8** ming. so'm), Karmana (**752,7** ming. so'm) va Uchquduq (**747,2** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Navoiy viloyati bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **32,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **87,7** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **15,1** mlrd. so'mni (78,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **17,2** mlrd so'mni tashkil etdi (98,2 %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mln. so'm)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.





UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	32,3	87,7	15,1	78,2	17,2	98,2
Navoiy sh.	5,7	64,2	5,7	64,2	-	-
Zarafshon sh.	0,4	31,6	0,4	31,6	-	-
G'ozg'on sh.	-	-	-	-	-	-
<i>tumanlar.</i>						
Konimex t.	1,5	142,4	0,5	80,8	1,0	78,2
Qiziltepa t.	3,1	81,1	1,9	81,9	1,2	79,2
Navbahor t.	0,2	71,0	0,2	71,0	-	-
Karmana t.	10,6	116,0	0,7	71,4	9,9	87,5
Nurota t.	2,4	133,6	0,7	78,0	1,7	85,2
Tomdi t.	0,2	80,8	0,2	80,8	-	-
Uchquduq t.	0,7	135,0	0,7	80,2	-	-
Xatirchi t.	7,5	76,0	4,1	67,7	3,4	87,3

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **32,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**9,7** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	9,7
	Non va non mahsulotlari	1,0
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	1,1
	Tovuq go'shti	0,2
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	0,7
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	0,4
	Tuxum	0,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	0,3
	Ziravorlar	0,5
	Tuzlamalar	0,7
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	0,1
	Nooziq-ovqat tovarlari	17,2

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **17,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **14,0** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **3,0** mlrd. so‘mni, otlar – **0,03** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,13** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	7,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	3,2
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	2,9
	Qo‘ylar	2,1
	Otlar	0,03
	Echkilar	0,9
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,1
	Tovuqlar	0,03
	Quyionlar	0,02
	Qushlar	0,02

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 319** tani tashkil etdi. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 318** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **3,7 %** ni tashkil etib, **19,4** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **21,7 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **85,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	19,4	78,3	2,7	73,4	16,7	79,2
Navoiy sh.	6,2	77,3	0,4	91,1	5,8	76,6
Zarafshon sh.	2,3	52,5	-	-	2,3	72,3
G'ozg'on sh.	0,1	91,5	-	-	0,1	91,5
<i>tumanlar.</i>						
Konimex t.	0,4	84,0	-	-	0,4	84,0
Qiziltepa t.	1,6	108,6	0,3	-	1,3	89,2
Navbahor t.	3,6	85,3	2,0	100,2	1,6	71,5
Karmana t.	2,3	82,1	-	-	2,3	82,7
Nurota t.	0,3	93,8	-	-	0,3	93,8
Tomdi t.	0,1	96,8	-	-	0,1	96,8
Uchquduq t.	0,9	78,9	-	-	0,9	78,9
Xatirchi t.	1,6	94,1	-	-	1,6	94,1

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **178,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **17,0 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **88,1** mlrd. so'm (**60,2 %** ni tashkil etdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **90,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **131,2 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	178,5	100,0
Navoiy sh.	143,9	80,6
Zarafshon sh.	0,1	0,1
G'ozg'on sh. <i>tumanlar.</i>	-	-
Konimex t.	0,01	0,01
Qiziltepa t.	0,9	0,5
Navbahor t.	0,02	0,01
Karmana t.	32,7	18,3
Nurota t.	0,2	0,1
Tomdi t.	0,01	0,01
Uchquduq t.	0,1	0,1
Xatirchi t.	0,6	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (**143,9** mlrd. so'm), Karmana tumani (**32,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **73,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, mikrofirma va kichik korxonalar ulushi **80,0 %** ni tashkil etadi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **58,7** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **72,4 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **80,0 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish Navbahor tumanida (**110,0 %**) kuzatildi.

2023- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **1 514** tani tashkil etdi. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **7** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 507** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	73,4	82,0	14,7	173,3	58,7	72,4
Navoiy sh.	38,0	92,3	12,5	174,7	25,5	75,1
Zarafshon sh.	3,9	80,1	0,02	-	3,9	79,8
G'ozg'on sh.	0,3	79,6	-	-	0,3	79,6
<i>tumanlar</i>						
Konimex t.	0,5	96,8	0,1	2,0 m.	0,4	81,5
Qiziltepa t.	7,3	79,5	-	-	7,3	79,5
Navbahor t.	2,7	110,0	0,8	14,8 m.	1,9	78,8
Karmana t.	11,4	59,5	1,3	104,6	10,1	56,4
Nurota t.	0,9	76,7	-	-	0,9	76,7
Tomdi t.	0,7	79,5	-	-	0,7	79,5
Uchquduq t.	2,4	79,3	-	-	2,4	79,3
Xatirchi t.	5,3	78,9	-	-	5,3	78,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 79-223-50-43**